

ISLOM OLAMINING TAQDIRI : AZ-ZAMAXSHARIY

Artiqova Adolat Ataboyevna

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Tarix yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmud az-Zamaxshariyning hayoti, ustozlari va uning jahon tamadduniga qo'shgan hissasi to'g'risida so'z boradi. Alloma asarlarining soni, turlari va bugungi kunda O'zbekiston hamda jahon fondlarida saqlanayotgan nusxalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: meros, tavhid, didaktika, hikmat, qo'lyozma, ma'naviyat.

O'zbekiston tarixining turli davrlari insoniyat uchun betakror kashfiyotlar va ilmiy yutuqlar bilan boydir. Shunday buyuk siymolar sirasiga Mahmud az-Zamaxshariy ham kiradi. Uning ayniqsa arab tilshunosligi, lug'atshunosligi va adabiyotshunosligi borasidagi merosi hanuzgacha musulmon dunyosining noyob manbai sifatida qadrlanadi. Globallashuv sharoitida allomaning didaktik asarlaridan yosh avlod tarbiyasida foydalanish dolzarb vazifadir.

Abu-l-Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad milodiy 1075-yilning 19-martida Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tug'ilgan. U o'z davrining eng yetuk olimlaridan ta'lim oldi. Mahmud az-Zamaxshariyning ilmiy faoliyati va ma'naviy merosiga oid manbalarda u o'z davrining bir qator yirik mutasavviflaridan tehsil olganligi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Xususan, Abu Mudar al-Isfahoniy olimga tilshunoslik va nahv sohasini chuqur o'rganishda unga ustozlik qilgan bo'lsa, [ctp.313.] Shayx al-Hayotiydan fiqh sohasida tehsil olgan. Ilohiyot (teologiya) ilmini esa Imom al-Usuliy va Abu Mansurdan o'rganganlar.

Mahmud az-Zamaxshariy o'z ustozlaridan shu darajada o'zib ketgandiki, hatto keyinchalik ayrim ustozlari undan tafsir ilmini o'rganish uchun shogird tushganliklari [B.278.] haqida tarixiy manbalarda ma'lumotlar uchraydi.

Alloma asarlarining soni bo'yicha turli manbalarda turlicha ma'lumotlar uchraydi. Jumladan:

- Hoji Xalifa o'zining "Kashfu-z-zunun" asarida olimga tegishli 29 ta asarini sanab o'tgan.
- Ibn Xallikon 30 ta asar nomini keltirgan.
- Yoqut al-Hamaviy bu ko'rsatkichni 50 taga yetkazgan.
- Muhammad Bosil Uyun as-Sud esa allomaning 65 ta asari nomini keltirib o'tgan. Istanbulda chop etilgan Islom ensiklopediyasida esa alloma qalamiga mansub 54 ta asar haqida ma'lumotlar uchraydi. So'nggi tadqiqotlar natijasida alloma asarlarining soni 70 ga yaqin ekanligi aniqlangan, biroq ularning ayrimlari hali topilmagan.

Allomaning dovrug'i bir necha asrlardan buyon nafaqat Sharq, balki G'arb olimlari tomonidan ham yuksak e'tirof etiladi. K.Brokkelman, G.Gibb, I.Yu. Krachkovskiy kabi yirik sharqshunoslar uning ilmiy merosi ustida tadqiqot ishlari olib borganlar.[1.-B.185.] Arab olimlari uning ilmiy qudratiga ehtirom bilan: "Xorazmlik alloma o'z hassasi bilan butun arab dunyosini egallab oldi", deb baho berishgan.

Az-Zamaxshariyning qo'lyozma asarlari bugungi kunda jahonning eng yirik kutubxonalarida saqlanmoqda. Xususan, Germaniyaning Myunxen, Niderlandiyaning Leyden, Angliyaning Kembrij, Italiyaning Milan, Rossiyaning Sankt-Peterburg, Eron Respublikasining Tehron va Peshovar kabi shaharlar milliy kutubxonalarida saqlanmoqda.[[http: / assalam. dgu. ru / html 15 / a 15-1.html](http://assalam.dgu.ru/html15/a15-1.html)] Mamlakatimizda esa O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Musulmonlar idorasi kutubxonasi va Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondlarida .buyuk allomamizning noyob asarlari nusxalari saqlanmoqda.

Mahmud az-Zamaxshariyning ilmiy merosi umuminsoniy metodologik ahamiyatga ega ma'naviy qadriyatdir. Uning asarlarini falsafa, tarix, filologiya,

manbashunoslik va islomshunoslik yo'nalishlarida yanada chuqurroq tadqiq etish respublikamiz ilm-fani uchun dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Uvatov U. Xorazmning olis yulduzlar. // Sharq yulduzi, 1991 №2. – B.185.
2. [http: / assalam. dgu. ru / html 15 / a 15-1.html](http://assalam.dgu.ru/html15/a15-1.html)
3. Крачковский И. Ю. Избранные сочинения. – Т. 4. – М. – Л.: Издательство АН СССР, 1957. – стр.313.
4. Hakimov A. Zamaxshariy-tilshunos olim. // Sharqshunoslik, 1999 №1 – 2. – B.278.